

BADIIY MATNDA EVFEMIZM VA DISFEMIZM HODISASINING LINGVOMADANIY IFODALANISHI

Tursinbayeva Shaxloxon

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU

Tayanch doktranti

[*shaxloxontursinbayeva@gmail.com*](mailto:shaxloxontursinbayeva@gmail.com)

Annotatsiya. Til – muloqot vositasi sifatida fikrlarni, xabarlarini, tuyg‘ularni yetkazish vositasi hisoblanadi. Insoniyat o‘z fikrini ifoda etishi uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan ko‘plab til uslublari mavjud: so‘zlashuv, badiiy va majoziy. Ular ichida olam manzarasini lisoniy jihatdan aks ettirish va madaniy jihatdan individlarning fikrlash tarzini tadqiq qilishda majoziy uslub boshqalaridan ajralib turadi. Majoziy uslub – ko‘chma ma’noli so‘zlar orqali insonlarning fikrlarini uslubiy bo‘ydorlik bilan ta’sirchan tarzda ifodalash, shu bilan birga ularga murakkab ma’noni yuklashni anglatadi. Majoziy ma’noni nutqda bayon etishda unumli foydalaniladigan evfemizm va disfemizmlar ma’lum bir xalqning madaniyatini akslantiruvchi ko‘zgudir. Xususan, mazkur tadqiqot evfemizm va disfemizm hodisasining lingvokulturologiyaning asosiy birliklaridan biri bo‘lgan frazeologizmlar orqali ifodalanishi hamda ularning nutq tarkibida qo‘llanilishi kabi masalalarni o‘z ichiga oladi.

Аннотация. Язык — это средство общения, средство передачи мыслей, сообщений и чувств. Существует множество языковых стилей, которые человечество может использовать для выражения своих мыслей: разговорный, художественный и образный. Среди них образный стиль выделяется среди остальных с точки зрения языкового отражения картины мира и культурного исследования образа мышления индивидов. Образный стиль — это эффективное выражение мыслей людей посредством образных слов, одновременно наделяя их сложным смыслом. Эвфемизмы и дисфемизмы, которые эффективно используются для выражения образного смысла в речи, являются зеркалом, отражающим культуру конкретного народа. Ведь в данной исследовательской работе было освещено явление эвфемизма и дисфемизма — одной из основных единиц лингвокультурологии, а также вопросы их употребления в речи.

Abstract. Language is a means of communication, a means of conveying thoughts, messages, and feelings. There are many language styles that humanity can use to express its thoughts: colloquial, artistic, and figurative. Among them, the figurative style stands out from the rest in terms of linguistic reflection of the worldview and cultural research into the way individuals think. The figurative style is an effective expression of people's thoughts through figurative words, while at the same

time imbuing them with a complex meaning. Euphemisms and dysphemisms, which are effectively used to express figurative meaning in speech, are a mirror reflecting the culture of a particular people. After all, in this research work, the phenomenon of euphemism and dysphemism, one of the main units of linguoculturology, was highlighted, as well as the issues of their use in speech.

Kalit soʻzlar: evfemizm, disfemizm, frazeologik birliklar, oʻxshatish va metaforalar, sinonimlik, antonimlik, omonimlik hodisalari.

Ключевые слова: эвфемизм, дисфемизм, фразеологические единицы, сравнения и метафоры, синонимия, антонимия, явления омонимии.

Keywords: euphemism, dysphemism, phraseological units, similes and metaphors, synonymy, antonymy, homonymy phenomena.

Tildagi evfemistik va disfemistik vositalarning lingvistik tadqiq olib borilganda, bevosita ushbu lingvistik hodisalarning vujudga kelish sabablari va etimologiyasi bilan birga, kulturasini ham qamrab olgan holda tadqiq qilish majburiyati yuklanadi. Negaki, tilda akslanuvchi har qanday leksema yoki murakkab komponentli birliklar oʻzida madaniyatni mujassamlashtiradi.

Dunyo tilshunosligida evfemizm va disfemizmlar chuqur tadqiq qilingan boʻlib, ilk bor ular ustidagi ilmiy izlanishlar antik davr olimlari Aristotel, Sitseron, Kvintilian asarlarida kuzatilsa, keyinchalik qadimgi yunon rim faylasuflariga oid qoʻlyozmalarda evfemik va disfemik hodisalar haqida fikrlar mavjud.

Evfemizm (yunoncha – yumshoq ifodalash) – soʻzlovchi aytishi noqulay, nooʻrin yoki qoʻpol tuyulgan soʻz va iboralarning sinonimi sifatida paydo boʻlgan soʻzlar. Disfemizm esa uning aksi boʻlib, (“dys” – notoʻgʻri va “pheme” – nutq, ovoz, obroʻ-eʻtibor) XIX asr oxirida isteʼmolga kiritilgan. Disfemizm – bu mavzu toʻgʻrisida yoki suhbatdosh haqida kamsitadigan ifodalardan foydalanishdir.

Gʻarb tilshunoslari, xususan, ingliz tili evfemik birliklari sistemizatsiyasi boʻyicha maxsus lugʻatlar yaratgan boʻlib, ular “A Dictionary of Euphemism” R.W. Holder, “The Wordworth Book of Euphemisms” J.S. Neaman, C.G. Silver, “A Dictionary of Euphemisms and Other Doubletalk” H. Rawson, “A Dictionary of Euphemisms” J. Ayto maxsus lugʻatlaridir. Rus tilshunosligida L.A. Bulaxovskiy¹, L.V. Shcherba², B.A. Larin³, Yu.S. Baskova⁴, M.L. Kovshova⁵, L.P. Krisin⁶, N.V.

¹ Буховского Л.А. Основы языкознания. – М., 1929.

² Щерба Л.В. О тройном аспекте языковых явлений и об эксперименте в языкознании. – Л., 1974.

³ Ларин Б.А. Об эвфемизмах // Учен. зап. ЛГУ. Сер. Филологические науки. Вып. 60. № 301. Л., 1961.

⁴ Баскова Ю.С.Эвфемизмы как средство манипулирования в языке СМИ (на материале русского и английского языков): автореф. дис. ... канд. филол. наук. Краснодар, 2006.

⁵ Ковшова М.Л. Семантика и прагматика эвфемизмов. Краткий тематический словарь со-временных русских эвфемизмов. М.: Гнозис, 2007.

⁶ Крысин Л.П. Эвфемизмы в современной русской речи // Крысин. Л.П. Русское слово, свое и чужое. Исследования по современному русскому языку и социолингвистике. М.: Языки славян. культуры, 2004.

Tishina⁷, V.P. Moskvina⁸, E.E. Tyurina⁹, A.M. Katsev¹⁰, A.O. Aleksandrov¹¹, S. Altaev¹² tomonidan evfemizmlar tadqiq etilgan.

Tabu va evfemizmlar turkologiyada XIX asrning oxirlaridan tadqiq etila boshlagan. XX asrning 50-yillaridan boshlab qozoq, qirg'iz, turkman, o'zbek tillarida tekshirish obyekti sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Jumladan o'zbek tilshunosligida N.Ismatullayev nomzodlik dissertatsiyasini, A.Omonturdiyevning nomzodlik va doktorlik, X.Qodirovaning nomzodlik dissertatsiyalari hamda lug'at, monografiyalarini va boshqa tadqiqotchilarning maqola va tezislarini ham ko'rsatish mumkin.

Evfemizmlar haqida J. Vandries¹³ quyidagicha fikrlarni bayon etadi: "Evfemizmlar – bu man etilgan lug'atning muloyimroq va madaniyroq formasigina xolos" – deydi.

L.A. Bulaxovskiy: "Evfemizmlar yomon fikr uyg'otadigan narsa yoki hodisaning asl nomini almashtirish va ular haqida so'z orqali yovuz kuchlarni chaqirish "xavf"ni tug'dirmay gapirish, ...hammadan oldin "xavfning oldini olish" formulasidir", – deb yozadi¹⁴.

Allan va Burridgelar esa evfemizmlar bilan birga disfemizmlar va ortofemizmlarni tadqiq etishadi hamda umumiy nom sifatida ularning barchasini X-femizmlar deb nomlaydi: evfemizmlar – sweet talking "shirin gapirish", disfemizmlar – speaking offensively "haqoratli gapirish", ortofemizmlar – straight talking "to'g'ri gapirish"¹⁵. Masalan, ortofemizmlar – boshboshdoqlik, evfemizmlar – boshi qovushmaslik, disfemizmlar – o'z go'shtini o'zi yemoq.

Guvohi bo'lganimizdek, evfemizmlar hodisasida individni xomush qilishi yoki uyaltirishi mumkin bo'lgan jumlarlar qog'ozga o'ralgan holda ifodalansa, disfemizmlar hodisasida ma'lum bir voqea-hodisalar ochiqdan ochiq bo'lishi bilan birga, individning hissiyotlariga zarar yetkazadigan darajada qo'pol tarzda qo'llanilishidir.

⁷ Тишина Н.В. Национально-культурные особенности эвфемии в современном английском и русском языке: автореф. дис. ... канд. филол. наук. М., 2006.

⁸ Москвин В.П. Эвфемизмы: системные связи, функции, способы образования // Вопр. языкознания. 2001. №3.

⁹ Тюрина Е.Е. Семантический статус эвфемизмов и их место в системе номинативных средств языка. – Новогород: Восход, 1998. – 127с.

¹⁰ Кацев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке (опыт социолингвистического описания): Автореф. дис. канд. филол. наук. – Л., 1977. – С. 190. // Кацев А.М. Эвфемистический потенциал и его реализация в речи // Некоторые проблемы слова и предложения в современном английском языке. Республиканский сборник. Горький, 1976.

¹¹ Александров А.В. О терминах "табу" и "эвфемизмы" //Лноземна филология, Вып. 8, Львовский ГУ. – Львов, 1966.

¹² Алтаев С. Эвфемизмы в туркменском языке: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Ашхабад, 1955.

¹³ Вандерис Ж. Язык лингвистическое введение в историю. – М.: 1937. – С. 206.

¹⁴ Булаховский Л.А. Введение в языкознание. – М., 1953. – 51 с.

¹⁵ Zuhreddinova M.S. X-femizmlar: disfemizmlar va ularning tarixi, o'ziga xosligi. Ilmiy maqola. – Talim innovatsiyasi va integratsiyasi. 6-son, 1-to'plam, Oktyabr-2023. – B 125.

Ortofemizm hodisasi esa Allan va Burrige¹⁶ tomonidan neologim sifatida fanga olib kirilgan bo'lib, so'z va iboralarni haddan tashqari yumshatmasdan yoki haddan tashqari qo'pollashtirmasdan neytral holatda qo'llashga nisbatan ishlatiladi. Masalan, Muhammad Alining "Ulug' salatanat" asarida o'lmoq so'zi frazeologik birliklar asosida evfemizm, disfemizm va ortofemizmlarga ajratildi.

Ortofemizm	Evfemizm	Disfemizm
Dunyodan ko'z yummoq	U dunyoga rihlat etmoq Foniy dunyoni tark etmoq Omonatini o'z egasiga topshirmoq Bandalikni bajo keltirmoq	Asfalasofiliga uchramoq Ajal o'qiga uchramoq Til tortmay jon bermoq

Yuqorida keltirilgan jadvalda frazeologik birliklar orqali ifodalangan X-femizmlar uslubiy bo'yoqdorlikka ega bo'lib, fikrni shunchaki yetkazmasdan, ta'sirchan tarzda yetkazishga xizmat qilmoqda.

T.S. Bushuevoyning¹⁷ ilmiy ishida evfemizm va disfemizmlarni semantik jihatdan sinflantiradi. Unga ko'ra evfemizm va disfemizm hodisalari ikki shaklda o'rganilishi kerak:

1. kundalik hayotda qo'llaniladigan evfemizm va disfemizmlar;
2. yuqori toifa vakillari tilida ishlatiladigan evfemizmlar va disfemizmlar kabi.

	Kundalik hayotda	Oqsuyaklar nutqida
Evfemizm	Yetti uxlab tushiga kirmaslik	Hayrat barmog'ini tishlash
Disfemizm	Go'rida tik turmoq	Arvohi chirqillamoq

Mazkur uslubdagi tadqiqot disfemistik va evfemistik hodisalarni ochib berishga bir qadar xizmat qilsa ham, to'liq shakllantirish uchun yetarli deb hisoblamaymiz.

Ushbu ilmiy ishimizda evfemistik va disfemistik hodisalar leksemalar asosida emas, frazeologik birikmalar asosida tadqiq qilinadi. shuningdek, frazeologik evfemizm va disfemizmlar omonimlik, sinonimlik, antonimlik va o'xshatish metaforaga asoslangan lisoniy birliklar asosida o'rganiladi.

Frazeologik evfemizmlarning omonimlik xususiyati. Ma'lumki, omonimlik shakl jihatdan bir xil, ma'no tomondan farq qiluvchi leksemalar yoki leksik birliklarga nisbatan ishlatiladi.

¹⁶ Allan Keith; Burrige Kate (2001). Euphemism and Dysphemism: Language Used As Shield and weapon (1st Replica Books ed.). Bridgewater N.J.: Replica Books.

¹⁷ Бушуева Т.С. Прагматический аспект эвфемизмов и дисфемизмов в современном английском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 2005. – 20 с.

– **Ko'z yummoq** mushkul. Ammo hazrat rislatpanohning tabarruk zuryodidan erkonlig'i uchun sabr-u toqat etagidan tutamen va unga yomonlikni aslo tilamasmen.

– Dunyodan **ko'z yumsam**, tobutdan qo'limni chiqarib qo'yingiz! – debdi Iskandar podsho.

Yuqorida keltirilgan jumalarda **ko'z yummoq** frazeologik evfemizmi ikki xil ma'no bildirmoqda. 1) kechirish, avf fetish; 2) vafot etish.

Frazeologik evfemizmlarning sinonimlik xususiyati. Sinonimlik – bu matnda yoki nutqda ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlarning qo'llanilishidir. “Adabini bermoq” ma'nosini ifodalaydigan frazeologik evfemizmlar:

– Bu nojinslarning **tanobini tortmoq** darkor!

– **Burnini yerga yaxshilab ishqab qo'yish** kerak! Jazosuni olsun! – Amir Oqbug'a-nayman boshqa gap qo'shmadi.

Frazeologik disfemizmlarning sinonimlik xususiyati. “Hali bu ish sodir bo'lishiga ancha vaqt bor”, – degan ma'noni ifodalaydigan disfemizmlar.

Kat ila Xevaqli berib qo'yadigan nodon hali dunyoga kelmapti, de! Hali undoq odam **onasining qornida yotgan ekan, de!**

Ammo men Sohibqironmasman, siz janobi oliyalari emassiz!.. **Hali bunga bir necha qovun pishig'i bor!**

Frazeologik evfemizmlarning antonimlik xususiyati. Antonimlik hodisasi bir-biriga zid bo'lgan leksemalar va iboralar o'rtasida keng qo'llaniladi. Masalan, yerga ursa ko'kka sapchimoq ↔ qo'y og'zidan cho'p olmagan kabi. Muhammad Alining “Ulug' saltanat” romanida ko'plab antiteza uchraydi. Ulardan bir mag'lub bo'lmoq va g'olib bo'lmoq ma'nolarini ifoda etuvchi evfemistik iboralardir.

Emish, Amir Husayn Temurbek bilan savash qurib, **mag'lublik jandasini egniga ilibdi**, taxtdan quvilibdi.

Nihoyat, “Barakali yil”ning **qo'li baland kela boshladi**: “Bebaraka yil” g'olib chiqish iddaosidan o'zini tiydi va qilichini yerga qo'ydi...

Frazeologik disfemizmlarning antonimlik xususiyati.

- Nega **ammamning buzog'iday lalaysan?** Och darvozangni! Shitob ketish kerak!

Amir Muso soddaroq, go'loq, amir Idiku esa makkor, **suvning bo'yiga olib borib sug'ormay keladiganlar** xilidan.

Ushbu parchalarda ammamning buzog'iday lalaymoq va suvning bo'yiga olib borib sug'ormay kelmoq fe'l frazeologik birikmalari o'zaro antonimlik hosil qilmoqda. Ulardagi disfemistik holat esa birinchi parchada go'llikka ishora qilinsa, ikkinchi parchada easa ayyorlik, quvlikka ishora qilinmoqda.

Frazeologik evfemizmlar tarkibida metafora hodisasi. Metafora bilamizki, o'xshatishning bir turidir, lekin o'xshatishdan asosiy farqi o'xshatish vositalarining mavjud emasligidir.

“Mohir” semasini ifodalovchi frazeologik evfemizmlar.

. **Uchiga chiqqan** mug‘ombir, firibgar yovdir, dushmandir...

Aqlli juvon bundan unumli va o‘z vaqtida foydalanar, me‘yoridan oshirmas, ayniqsa, Amir Musoning ishi tushib turganda **ustasi farang** bo‘lib ketardi...

Sherzoda **yulduzni bexato uradigan** pahlavonlar turibdi!

Frazeologik disfemizmlar tarkibida metafora hodisasi.

“Bo‘ysunmoq” semasini ifodalaydigan frazeologizmlarda metafora.

Dushmanning oldiga, siz ulug‘siz, qo‘shiningiz lak-lak, deya bosh egib bor, demoqchimisiz? Borib Oqsoq Temurning **oyog‘ini yalaylikmu?**

Frazeologik evfemizmlar tarkibida o‘xshatish hodisasi. Tarkibida o‘xshatish vositalari kabi, singari, yanglig‘, -day, -dek bo‘lgan frazeologik evfemizmlar. “Tipirchilamoq” semasini ifodalaydigan frazeologik birlik: Oyog‘i kuygan tovuqdek.

Temurbek paydar-pay kelgan iltijolardan Amir Husaynning **oyog‘i kuygan tovuqdek** tipirchilab shoshib qolganini bildi.

Frazeologik disfemizmlar tarkibida o‘xshatish hodisasi. “O‘ldirtirmoq” semasini ifodalovchi frazeologik birlik: Qo‘ydek bo‘g‘izlatmoq.

Agar Amir Temur huzuriga ketayotgan amirlarning oldiga dasturxon yozib, siylab, aldab, yarim yo‘lda **qo‘ydek bo‘g‘izlatib, u dunyoga ravona qilsam...**

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, har qanday badiiy asar tarkibida qo‘llangan evfemistik va disfemistik birliklar individlarning fikrlash tarzi, borliqni tasavvur qilishi shakli hamda ular ongiga singdirilgan madaniyatning tildagi ifodasini ko‘rsatishiga guvoh bo‘lamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Allan Keith; Burridge Kate (2001). Euphemism and Dysphemism: Language Used As Shield and weapon (1st Replica Books ed.). Bridgewater N.J.: Replica Books.
2. Александров А.В. О терминах "табу" и "эвфемизмы" // Лноземна фитоология, Вып. 8, Львовский ГУ. – Львов, 1966. Баскова Ю.С. Эвфемизмы как средство манипулирования в языке СМИ (на материале русского и английского языков): автореф. дис. ... канд. филол. наук. Краснодар, 2006. Булаховский Л.А. Введение в языкознание. – М., 1953. – 51 с. // Основы языкознания. – М., 1929.
3. Алтаев С. Эвфемизмы в туркменском языке: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Ашхабад, 1955.
4. Бушуева Т.С. Прагматический аспект эвфемизмов и дисфемизмов в современном английском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 2005. – 20 с.
5. Вандериес Ж. Язык лингвистическое введение в историю. – М.: 1937. – С. 206.

6. Кацев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке (опыт социолингвистического описания): Автореф. дис. канд. филол. наук. – Л., 1977. – С. 190. // Кацев А.М. Эвфемистический потенциал и его реализация в речи // Некоторые проблемы слова и предложения в современном английском языке. Республиканский сборник. Горький, 1976.
7. Ковшова М.Л. Семантика и прагматика эвфемизмов. Краткий тематический словарь современных русских эвфемизмов. М.: Гнозис, 2007.
8. Крысин Л.П. Эвфемизмы в современной русской речи // Крысин. Л.П. Русское слово, свое и чужое. Исследования по современному русскому языку и социолингвистике. М.: Языки славян. культуры, 2004.
9. Ларин Б.А. Об эвфемизмах // Учен. зап. ЛГУ. Сер. Филологические науки. Вып. 60. № 301. Л., 1961.
10. Москвин В.П. Эвфемизмы: системные связи, функции, способы образования // Вопр. языкознания. 2001. №3.
11. Тишина Н.В. Национально-культурные особенности эвфемии в современном английском и русском языке: автореф. дис. ... канд. филол. наук. М., 2006.
12. Тюрина Е.Е. Семантический статус эвфемизмов и их место в системе номинативных средств языка. – Новгород: Восход, 1998. – 127с.
13. Zuhriddinova M.S. X-femizmlar: disfemizmlar va ularning tarixi, o'ziga xosligi. Ilmiy maqola. – Talim innovatsiyasi va integratsiyasi. 6-son, 1-to'plam, Oktyabr-2023. – В 125.
14. Щерба Л.В. О тройном аспекте языковых явлений и об эксперименте в языкознании. – Л., 1974.